

## MUSTAQIL DUNYOQARASHGA EGA BO‘LISH BOSQICHLARI

**Umirova Navruza Mamasoliyevna**

*SamDU “Pedagogika va umumiy psixologiya” kafedrası tayanch-doktoranti*

**Annotasiya.** Ushbu maqolada oliy ta’lim o‘quv jarayonida talabalar mustaqil dunyoqarashini kengaytirishda amaliyotga yo‘naltirilgan ta’limning zamonaviy pedagogik jihatlari va asoslari yoritilgan. Shuningdek amaliyotga yo‘naltirilgan ta’limda xorijiy va hududiy o‘lchamlarni hisobga olish lozimligi keltirilgan.

**Kalit so‘zlar:** zamonaviy ta’lim asoslari, mustaqil dunyoqarash, amaliyot, xalqaro o‘lchamlar, hududiy o‘lchamlar, o‘quv jarayonni amaliyot bilan bog‘lanish samaradorligi.

**Аннотация.** В статье рассматриваются современные педагогические аспекты и основы практико-ориентированного образования в расширении самостоятельного мировоззрения студентов в процессе высшего образования. Также утверждается, что практико-ориентированное образование должно учитывать зарубежные и региональные аспекты.

**Ключевые слова:** основы современного образования, независимое мировоззрение, практика, международное измерение, региональное измерение, эффективность связи образовательного процесса с практикой.

**Abstract.** This article discusses the modern pedagogical aspects and foundations of practice-oriented education in expanding students' independent worldviews in the higher education process. It also highlights the need to take into account foreign and regional dimensions in practice-oriented education.

**Key words:** foundations of modern education, independent worldview, practice, international dimensions, regional dimensions, effectiveness of linking the educational process with practice.

**Ключевые слова:** основы современного образования, независимое мировоззрение, практика, международное измерение, региональное измерение, эффективность связи образовательного процесса с практикой.

Global hayotda insoniyatni oliy mavjudod ekanligini isbotlash va uning mavqeini ko‘tarish va saqlab qolish uchun juda katta o‘zgarishlar va tadbirlar ishlab chiqilimoqda. Chunki insoniyat boshqaradigan sohalarda texnika imkoniyatlari

oldinlab bormoqda. Shuning uchun ham yangilanib borayotgan jamiyatdagi insoniyat roli yangi kasblar bilan yangicha hayot tarziga aylantirish bilan bog‘lamoqda.

Inson tug‘ilibdiki o‘zligini anglaydi, xarakteri shakllanadi, ijtimoiylashadi, va atrofdagilarga nisbatan o‘z qarashlari va tushunchalari paydo bo‘la boshlaydi. Unda aqliy, axloqiy, estetik tarbiya shakllanib borar ekan o‘zini anglash va o‘znini boshqalarga borligini bildira boshlaydi. Bu bolada “men”i shakllanayotganligini anglatadi. Tarbiya berish orqali ularda dastlabki fikrlash qobiliyatini shakllantiramiz. Bu yoqtirga narsalarini ayta olish va xoxlash va xohlamaslik bilan munosabatini aytadi. Keyin narsa va buyumlarni turkumlaydi va boshqa narsalar bilan aloqasini va fazodagi vazifalarini o‘rganadi. Maktab yoshiga kelganda berilgan savollarga olgan bilimlari va kuzatgan uchratgan hodisalariga qarab munosabat bildiradi va javob beradi. Natijada mustaqil dunyoqarashi tarkib topa boshlaydi.

Dunyoqarash- insonni tashqi olam, insonlar, narsalar va hodisalarga nisbatan muayyan fikri. Bu fikr va munosabat uning olgan bilimlari ijtimoiy hayotda kuzatishlari, guvoh bo‘lgan voqealari natijasida shakllanadi va rivojlanib boradi. Dunyoqarashni dastlab mifologik, falsafiy, mantiqiy turlari mavjud bo‘lib, bu borada ko‘pgina alloma va faylasuflar ijod qilishgan va olamni asosini shu fikrlar asosida talqin qilishgan bugungi kunda har bir yetuk shaxsni mustaqil fikri dunyoqarashi bo‘lishi va bu ilmiy va ijtimoiy dalillar bilan boyitilishi muhim hisoblanadi. Mustaqil dunyoqarash yuqoridagi dunyoqarashlarni turmush bilan bog‘langan (kundalik) dunyoqarash turiga kirib, ijodda va ijtimoiy hayotda aqlga sig‘adigan tasavvurlar, olam va odam to‘g‘risidagi oddiy va an’anaviy qarashlar aks etadi. Dunyoqarashni o‘lchash murakkab va ko‘p qirrali jarayon, chunki u insonning hayotga, odamlar, jamiyat, ilm-fan, din, axloq va boshqa sohalarga bo‘lgan qarashlarini o‘z ichiga oladi.

Oliy ta’limga qadam qo‘ygan talabalarni o‘zlashtirish bilan birga ularni bir-biriga bog‘lash, hayotda nima uchun kerak?, nimada aks etadi? nazariyani hayotga bog‘liqligi nima?, nima uchun mening fikrim kerak? Degan fikrlarga javob topadi. Chunki fanlarni o‘zlashtirish faqat kasb vazifalarini, bilimini va maqsadini o‘rganish emas, unda qanday yangilik qilsa bo‘ladi, qanday yodoshuv samarali bo‘ladi tanqidiy o‘rganishni mohiyati, samaradorlikka ta’sir etuvchi omillar haqida mustaqil dunyoqarashi kengayadi. Mustaqil dunyoqarashi talabada olgan bilimini mohiyatini o‘z o‘lchovlari bilan baholashi zamirida yotadi.

Shuning uchun, ta’lim sohasi shunday maqsadlarni oldiga qo‘yishi talabalarni mustaqil dunyoqarashini zamonaviy, mantiqiy va kreativ jihatdan amalda ta’minlashi lozim. Bu yondashuvlar xorijiy tajribalarni qo‘llay olish, talabalar ta’lim olish

madaniyatini to‘g‘ri yo‘lga qo‘yish, nazariya bilan amaliyotni birga olib borish, zamonaviy texnologiyalardan foydalanish asosida ta’lim olishni ta’minlash, adabiyotlar tahlili bilan ishlash va mustaqil ta’lim ustida real tadqiqotlar asosida ishlashni taqozo qiladi.

Jahonning eng rivojlangan mamlakatlari oliy ta’lim tizimida tashkil qilingan o‘quv jarayonlarining asosi bo‘lgan o‘quv dasturlar mazmunan bir xillikni tashkil qilsada talabalarni mustaqil dunyoqarashini kengaytirish va fikrlash dunyosini o‘stirish uchun turli usullardan foydalangan hamda ilg‘or ta’limiy yondashuvlarni kiritgan. Bizning ham oliy ta’lim tizimida ishlab chiqilayotgan o‘quv dasturlar orqali talabalar mustaqil dunyoqarashini kengaytirish masalalari jahon ilg‘or tendensiyalardan foydalanilsa ta’lim samaradorligini oshishiga erishishda bir muncha yuqoriroq natijalar bilan erishgan bo‘lamiz

Globalashuv asrida eng insoniyatni tashvishga soladigan muammo bu “inson kapitali”ni shakllantirish maqsadi bo‘lib, jamiyat barcha sohalardagi investiriyalarni insoniyat intellektual salohiyatini o‘stirish va kengaytirishga qaratmoqda. Chunki insoniyatni intellektual salohiyatini o‘sishi jamiyat rivoji, yangi innovatsiyalarni hayotga tatbiq qilinishi va yangicha hayot sharoitlarini yaratilishiga asos bo‘lib xizmat qiladi. Jamiyatga yangiliklarni kirib kelishi va shu yangiliklarga munosib tayyor turishimiz uchun avvalo ta’limni so‘nggi yangiliklar va texnologiyalar bilan boyitishimiz lozim bo‘ladi. Yangidan yangi kasblarni hayotimizga kirib kelishi, so‘nggi texnologiyalarni hayotga tatbiq qilishimizning barchasida ta’limning o‘rni va xizmati beqiyosdir.

Shuning uchun porloq kelajak qurishimizda ham ta’lim asosiy o‘rinda turadi chunki kelajagimiz yosh avlodlar qo‘lida ekan biz bugundan boshlab ularga yangi texnologiyalar orqali ta’lim berishimiz lozim. Jahon hamjamiyatida barcha tengdoshlari bilan berlash oladigan, fikr almasha oladigan va qolaversa o‘z fikrlarini g‘oyalarini bemalol bildiradi oladigan yoshlarni tarbiyalashimizda ham ta’lim birinchi o‘rinda turadi. Ta’lim sohasidagi barcha yangiliklarni olib kirish va milliy o‘qitish tizimida hamkorlikda ta’limni tashkil etishimiz ham jahon hamjamiyatida talab qilinadigan talablarga munosib bo‘lishimiz ham bizning oliy maqsadlarimizdan biri hisoblanadi.

Shunday ekan, biz butun dunyoda eng ta’lim tizimida ko‘p natijalarga erishgan universitet va institutlar foydalanayotga o‘quv dasturlar, o‘quv-uslubiy jarayonlarni tashkil etishda so‘nggi zamonaviy usullardan foydalanishimiz maqsadga muvofiq bo‘lar edi. Chunki ta’lim ham rivojlanishda xilma-xil o‘qitish usullarida va hamkorlikda o‘z natijadorligini isbotlaydi. Shu asnoda jahonda rivojlangan



mamlakatlar o‘qitish uslublaridagi o‘quv dasturlarni talabalar dunyoqarashini kengaytirishga qaratilgan jihatlarini ko‘rib chiqdik.

**Foydalanilgan adabiyotlar:**

1. 2019 yildagi 8-oktabr. “O‘zbekiston Respublikasi oliy ta’lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasi” PF-5847-sonli farmoni.
2. Mirziyoyev SH.M. Milliy taraqqiyot yo‘limizni qat’iyat bilan davom ettirib yangi bosqichga ko‘taramiz. – I. – T.: O‘zbekiston , 2017. – 592 b.
3. Nagmetova N.M. Thoretical aspects of the formation of students’ worldview in the process of training in higher education.
4. Sattorov V.N (2023). Umumiy pedagogika fani taraqqiyotining ustuvor yo‘nalishlari. ORIENTAL RENAISSANCE: INNOVATIVE, EDUCATIONAL, NATURAL AND SOCIAL SCIENCES,3, (2023)
5. To‘raqulov O.X. O‘qitishda innovasion usullardan foydalanish// Kasb hunar ta’limi, 2005, 6-son.